

“O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI”

Yetkirova Aziza Xaydarovna

azizaetkirova@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun kreditlash amaliyotini takomillashtirishga bag‘ishlanadi. Dissertatsiyada statistik ma’lumotlar, mavjud ilmiy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalarida, jumladan, Toshkent Bank-Moliya Akademiyasi professor-o‘qituvchilari ilmiy maqolalarida yoritilgan ma’lumotlar asosida mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar aniqlanadi, ularni bartaraf etish yo‘llari ishlab chiqiladi, hamda xotin-qizlar tadbirkorligini moliyalashtirishning samarali tizimini yaratishga amaliy takliflar keltirilgan.*

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivoji bevosita xususiy sektor bilan bog‘liq. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlatlar farovonligi, avvalo, tadbirkorlik faoliyati orqali daromad olishga asoslanadi. Chunki, xalq boy bo‘lsa, davlat ham qudratli bo‘ladi. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati doirasida xotin-qizlarning bu sohada faol ishtirokini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri - aholining katta qismini (qariyb 50%) tashkil etuvchi xotin - qizlarning jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun sharoit yaratishdir. Bu ularning farovonligini ta’minlashning muhim omilidir.

Oxirgi yillarda xotin - qizlarning biznes sohasidagi ishtirokini oshirish maqsadida davlat tomonidan qo‘llanilgan moliyaviy instrumentlar, jumladan, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar, sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi

O‘zbekiston Respublikasida xotin - qizlar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotganiga qaramay, sohada o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb masalalar mavjud. Shu bois, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish va kengaytirish lozim.

Mazkur ilmiy ish davomida xotin - qizlar tadbirkorligini kreditlash amaliyotida hozirga qadar qilingan ishlar chuqur tahlil qilingan holda, kelajakda qilinishi lozim bo‘lgan ishlarning ham amaliy tahlili yoritiladi.

Xotin-qizlar tadbirkorligining hozirgi iqtisodiy o‘shidagi muhim roli, ushbu tadqiqot mavzusining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi dolzarbligini asoslaydi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarning chuqurligi, metodologik asoslanganligi hamda empirik kuzatuvlarning xolisligi tadqiqot masalasining ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Global inqirozlar (iqlim o‘zgarishi, geosiyosiy beqarorlik) sharoitida ushbu tadqiqotning dolzarbligi yanada ortadi, chunki xotin-qizlar tadbirkorligi barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash amaliyotini tahlil qilish va shu asosda ayol tadbirkorlarni o‘ziga xos ehtiyojlarini, tarmoq xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy omillar va iqtisodiyotning raqamli transformatsiya jarayonlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Ilmiy ishda qo‘yilgan savollarga javob topish uchun nazariy asoslar bilan bir qatorda amaliy tahlil metodlaridan foydalaniladi. Olingan natijalar ilmiy manbalar va empirik ma‘lumotlar asosida tahlil qilinib, asosli xulosalar chiqariladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Nazariy adabiyotlarda ayollar tadbirkorligi turli yondashuvlar orqali o‘rganilgan. Bourdieu (1990) tomonidan ilgari surilgan “ijtimoiy kapital” nazariyasiga ko‘ra, ayollarning tarmoq, aloqalar va ishonch muhitiga ega bo‘lishi ularning tadbirkorlikdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Scott, W. R. (2001) esa institutsional nazariyada ijtimoiy va madaniy cheklovlarining iqtisodiy faoliyatga ta‘sirini ko‘rsatib, ayollar tadbirkorligi aynan shu institutlar bilan chegaralanganini isbotlaydi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollar mehnatining rolini oshirish va undan foydalanishni ilmiy tarzda o‘rganishga oid muammolar turli davlatlarda turlicha yechimga ega bo‘lgan. Masalan, g‘arbda taniqli iqtisodchi olimlaridan hisoblangan E.Giddens, G.Sillaste, T.Parsonning ilmiy ishlarida ayollar mehnatining rolini oshirish bo‘yicha ilmiy nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Amerikalik sotsiolog olimlar L.Vard V.Tomos, A.Kante va G.Spenser kabilar ham o‘z ilmiy qarashlarida ayollar mehnatidan samarali foydalanish va buning natijasida iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beruvchi g‘oyalarini yaratganlar.

Rossiyalik olimlar qatorida ayollar mehnatidan foydalanish masalalari bo‘yicha E.N. Fetshov, P.Sorokin, M.Rivkin, T.Zaslavskaya, T.Bezdenejnik, S.Suxanov va L.Babaeva kabilarning ilmiy ishlarini alohida qayd etish mumkin.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollar mehnatining roli va uni oshirish, shuningdek, ayollar mehnatidan foydalanish masalalariga oid fundamental-nazariy va amaliy muammolar R.Ubaydullaeva, D.Raximova, M.Sobirova,

S.Qosimova kabi olimlarning ilmiy maqolalari va asarlarida ayollar mehnatidan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Empirik tadqiqotlar esa ayollar tadbirkorligining amaliy jihatlarini yoritadi. UNDP (2024) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillar, jumladan, institutsional cheklovlar, sektorlar bo‘yicha muammolar va individual to‘siqlar aniqlangan. Tadqiqotda, shuningdek, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun tavsiyalar ham berilgan.

Ismoilova D. K. (2022) tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar asosida ayol tadbirkorlarning asosiy muammolari sifatida kredit olishdagi byurokratik to‘siqlar, kafillik muammolari va ijtimoiy stereotiplar ajratib ko‘rsatilgan.

Shunday qilib, nazariy va empirik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlar tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham chambarchas bog‘liq. Mazkur tahlil, dissertatsiyaning keyingi bo‘limlarida olib boriladigan amaliy tadqiqotlarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosi kreditlash mexanizmlarini tahlil qilish, ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish va ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga ta‘sirini baholashga qaratilgan sifat va miqdoriy yondashuvlarni birlashtiradi. Mazkur tadqiqot ishi doirasida quyilgan maqsadlariga erishish uchun turli usullar integratsiyalash orqali, kompleks tarzda qo‘llanildi.

Analitik va solishtirma usullar uyg‘unligi xalqaro kreditlash amaliyotini tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitiga mos keladigan, muvaffaqiyatli modellarni aniqlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy-statistik usul yordamida olingan raqamli ko‘rsatkichlar, ekspert baholash usuli orqali mutaxassislarning fikri bilan tasdiqlanadi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish va ekspert baholash natijasida, amaldagi qonunchilikdagi kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqiladi.


Yuqorida keltirilgan usullar dissertatsiyadagi tahlillarning turli jihatlarini qamrab olib, Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun kreditlashni takomillashtirish usullarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Xotin-qizlar tadbirkorligi mamlakatimiz iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati va tadbirlar natijasida bu sohada sezilarli o‘sish kuzatilmoqda.

So‘nggi o‘n yilliklarda ayollarning iqtisodiy holatini (*erkaklarga nisbatan*) kuzatish va solishtirish uchun xalqaro miqyosda taqqoslanadigan ko‘rsatkichlardan foydalanish, shuningdek, gender kesimida ajratib ko‘rsatilgan 1-rasmiy ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish sezilarli darajada oshdi.

1-rasm — Ayollar egalik qiladigan korxonalar ulushi (so‘nggi yil)*



2-rasm — Rahbari ayol kishi bo'lgan korxonalar ulushi (so‘nggi yil)**




Manba: Jahon banki Jahon taraqqiyoti ko‘rsatkichlari ma’lumotlar bazasi. Izoh: Qirg‘iziston, daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar hamda dunyo bo‘yicha ma‘lumotlar 2023-yilga tegishli. Boshqa mamlakatlar uchun ma‘lumotlar 2015-2020-yillarga tegishli. * “Asosiy egalari orasida ayol kishi bo‘lgan korxonalar ulushi” sifatida ta’riflanadi. ** “Rahbar yoki bosh direktori ayol kishi bo‘lgan xususiy sektordagi korxonalar ulushi” sifatida ta’riflanadi.

Biroq ayollar tadbirkorligi uchun eng dolzarb, ochiq, xalqaro miqyosda taqqoslanadigan ko‘rsatkichlar nuqtayi nazaridan erishilgan siljish unchalik aniq emas. Jahon bankining “Jahon taraqqiyoti ko‘rsatkichlari” (WDI) hamda “Ayollar, biznes va qonun” (WBL) indeksi ma’lumotlar bazalaridan bevosita ayollar tadbirkorligiga doir potensial foydali bo‘lgan ma’lumotlar. Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi korxonalarning atigi 26 foizida korxona asosiy egalariidan bir yoki bir necha nafari ayol kishi va O‘zbekistondagi (*xususiy*) korxonalarning atigi 12 foizida bosh direktor yoki boshqa bosh rahbar ayol kishi hisoblanadi. O‘zbekiston bu ko‘rsatkich bo‘yicha nafaqat dunyo (34% va 19%) va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan mamlakatlar (mos ravishda 36% va 21%), balki Qozog‘iston (31% va 26%), Qirg‘iziston (34% va 22%), Rossiya (34% va 24%) bilan ham raqobatlasha olmaydi. Biroq ayollar egalik va boshqaruvdagi asosiy funksiyalarni bajaradigan korxonalar ulushi to‘g‘risidagi O‘zbekiston (*va ba’zi boshqa mamlakatlar*) bo‘yicha ushbu ma’lumotlar 2019-yildan beri yangilanmagan va endi to‘la haqqoniy bo‘lmasligi mumkin. Boshqa tomondan, O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi uchun huquqiy muhit (*yaqinda*) Jahon bankining «Ayollar, biznes va qonun» (WBL) indeksi bo‘yicha ijobiy baholangan (3-rasm). Biroq, bu ma’lumotlar faqat Toshkentga (*va boshqa mamlakatlar poytaxtlari yoki, agar*

boshqa bo‘lsa, yetakchi tijorat shaharlari) taalluqli. Shu tariqa, ular O‘zbekiston va qo‘shni mamlakatlarda tadbirkor ayollar duch kelayotgan shart-sharoitlar to‘g‘risida qisman tasavvur beradi, xolos.

3-rasm — Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun” indeksi ko‘rsatkichlari bo‘yicha yetakchi shaharlar reytingi (2024-yil)




Manba: Jahon bankining WBL ma'lumotlar bazasi. Unda yetakchi tijorat shaharlarida tadbirkor ayollar duch keladigan to'siqlar huquqiy baza (qonun-qoidalar) va "qo'llab-quvvatlovchi baza" nuqtayi nazaridan baholanadi.⁶ 100 — mumkin bo'lgan eng yuqori ball.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan kompleks siyosat amalga oshirilayotganiga qaramasdan, 2023-yilgi empirik ma'lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki darajasi global tendensiyalar, xususan, daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan mamlakatlar ko‘rsatkichlari hamda mintaqaviy ko‘rsatkichlar bilan solishtirilganda sezilarli darajada pastligicha qolmoqda. Bundan tashqari, bu ko‘rsatkich qisman mamlakatda tug‘ilishning yuqori (va o‘sib borayotgan) darajasi tufayli vaqt o‘tishi bilan pasayib borayotgandek ko‘rinadi. 2023-yilda 961 962 nafar tug‘ilish qayd etilgan bo‘lib, bu bir yil avvagi ko‘rsatkichga nisbatan 3 foizga ko‘p. 2020-2024-yillarda har yili o‘rtacha 90 ming nafar ayol homiladorlik va tug‘ish ta’tilini olib, iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi safiga qo‘shilgan. Bundan tashqari, 2022-yilda oltmish yoshdan oshgan shaxslar 3,2 milliondan ortiq kishini tashkil etib (2009-yilga nisbatan ikki baravar ko‘p), bu O‘zbekistonda keksalarni (shuningdek, bolalarni) parvarishlashning o‘rni ortib borayotganidan dalolat beradi. Mamlakatda tug‘ilish darajasining yuqoriligi va aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining ortishi parvarishlash iqtisodiyoti bilan bog‘liq masalalarning (va bu

masalalarning tadbirkor xotin -qizlarga qo‘shimcha yuk bo‘lishi ehtimoli) kelajakda ham dolzarb bo‘lib qolishi mumkinligini ko‘rsatadi.


2017-yilda O‘zbekistonda ayollar orasidagi ishsizlik darajasi mamlakatdagi erkaklar orasidagi ishsizlik hamda ayollarning global va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan mamlakatlar miqyosidagi ishsizlik darajasi ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanganda ijobiy bo‘lgan esa-da, o‘sha vaqtdan buyon keskin o‘tdi (6-rasm). Kasbiy segregatsiya, ya’ni ayollar kamroq haq to‘lanadigan sohalarda (ko‘pincha, davlat byudjeti mablag‘lariga tayanadigan sohalarda yoki faqat to‘liq bo‘lmagan ishga olinadigan sohalar) ishlash ehtimoli yuqoriligi daromad borasida gender tafovutga o‘z hissasini qo‘shadi.

4-rasm — Ayollarning mehnat bozorida ishtirok etish ko‘rsatkichlari (2023-yil)



Ishlayotgan yoki ish qidrayotgan xotin-qizlar (15 yoshdan yuqori) ulushi (XMTning modellashirilgan hisob-kitoblari asosida). Manba: Jahon banki WDI ma'lumotlar bazasi.

5-rasm — Ta'lim olmayotgan, ishlamayotgan yoki kasbiy tayyorgarlikdan o'tmayotgan yosh xotin-qizlar ulushi (2023-yil)




Xotin-qizlar ulushi (15-24 yoshdagi, XMTning modellashirilgan hisob-kitoblari asosida). Manba: Jahon banki WDI ma'lumotlar bazasi.

6-rasm — Ayollar bilan erkaklar orasidagi ishsizlik darajasi (2017-2023-yillar)



Manba: Jahon banki WDI ma'lumotlar bazasi

7-rasm — Oila a'zolarini parvarishlash vazifalariga ajratiladigan vaqt ulushi (so'nggi yil)



"Haq to'lanmaydigan uy va parvarishlash ishlariga sarflangan vaqt ulushi (24 soatlik kunning foizi hisobida)" sifatida tavsiflanadi.
Manbalar: Jahon banki WDI ma'lumotlar bazasi hamda Makroiqtisodiyot va mintaqaviy tadqiqotlar instituti (MMTI), Toshkent.⁸

O'zbekistonlik ayollarning parvarish bilan bog'liq mehnat bozoridan tashqaridagi muhim vazifalari (7-rasm) ularning mehnat bozoridagi ishtirokida asosiy cheklov bo'layotgani shubhasiz. Bunga, o'z navbatida, ayollarni uy ishlarini bajarish orqali cheklab qo'yadigan hukmron ijtimoiy-madaniy munosabatlarning aksi sifatida qarash mumkin. Bunday munosabatlar, jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining 2018-yilgi so'rovida qayd etilgan bo'lib, unda O'zbekistondagi respondentlarning 80 foizi "erkaklar uy xo'jaligini boshqarishi", ayollar esa "uy ishlarini bajarishi va farzand tug'ishi" kerakligini ta'kidlagan (CABAR Asia, 2018, 2019-yillar). Ushbu natijalar O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy kutilmalar nafaqat ayollarga parvarishlash bo'yicha asosiy mas'uliyat yuklashini, balki bu iqtisodiy faoliyat va xususan tadbirkorlik bilan shug'ullanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydigan tarzda amalga oshirilishini ko'rsatadi.


Qisman ana shu omillar tufayli O'zbekistonda ayollar va erkaklarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlari o'rtasidagi tafovut 2018-2022-yillar davomida sezilarli darajada o'sganligi aniqlangan (BMT Taraqqiyot dasturining Inson taraqqiyoti bo'yicha hisoboti) (8-rasm). 2017-yilda bozor va boshqaruv sohasidagi islohotlar joriy etilganidan so'ng O'zbekistonda xususiy sektorning kengayishi, erkaklar ish bilan band bo'lish ehtimoli ko'proq bo'lgan sohalarda (masalan, texnologiyalar, moliya) ish haqining oshishi tendensiyasi ham ushbu tafovutga hissa qo'shgan bo'lishi mumkin.

8-rasm — O‘zbekistonda ayollar bilan erkaklar orasida jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAMD (2000-2022-yillar)



Manba: BMTDning Inson taraqqiyoti hisoboti byurosi. 2017-yildagi xarid qobiliyati pariteti ayirboshlash kurslariga asoslangan hisob-kitoblar.

9-rasm — zbekistonda xususiy sektorga ajratilayotgan kreditlarning YAIMga nisbati (2013-2023-yillar)



Manba: Jahon banki WDI ma'lumotlar bazasi.

Shunga qaramay, keyingi yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlik ko‘lami sezilarli darajada kengaydi. 2023-yilda kichik biznes subyektlari (*deyarli barchasi xususiy mulk hisobalanadi*) mamlakat YAIMning 55 foizini shakllantirdi. O‘tgan yili mamlakatda 5,2 millionga yaqin tadbirkor faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, ulardan 2,1 million nafari xotin-qizlar bo‘lib, bu 2020-yilga nisbatan yetti baravar ko‘pdir. Iqtisodiyotda band bo‘lgan ayollarning qariyb 35 foizini tadbirkorlar tashkil etadi.

O‘zini-o‘zi band qilganlar tadbirkorlarning eng katta guruhini tashkil etib, 2024-yilda ro‘yxatga olingan o‘zini-o‘zi band qilganlar umumiy sonining 42 foizi, ya‘ni 1,9 million nafari ayollar hisoblanadi. Bundan tashqari, 2024-yilda 283 169 nafar yakka tartibdagi tadbirkor ro‘yxatga olingan bo‘lib, 11 ulardan 121 135 nafari (43 foizi) ayollardir. Biroq, yuridik shaxs (*korporativ*) bo‘lgan tadbirkorlar orasida ayollarning ulushi nisbatan past bo‘lib, atigi 17 foizni (79 633 nafar jismoniy shaxs) tashkil etgan. Milliy ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi unumdorlik past bo‘lgan, odatda, nisbatan pastroq malaka talab qiladigan va past daromad keltiradigan tarmoqlar — savdo va qishloq xo‘jaligida eng keng tarqalgan. Shu bois o‘zbekistonlik xotin - qizlar orasidagi tadbirkorlik kambag‘allik va ijtimoiy-iqtisodiy himoyasizlikdan chiqib ketishni kafolatlamaydi. Shu bois

tadbirkor ayollar uchun (*shuningdek, umuman ayollar uchun*) ko‘proq va barqaror daromad olish imkoniyatlarini ta‘minlash siyosatning dolzarb ustuvor yo‘nalishi sifatida e‘tirof etilgan.

O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini kreditlash amaliyoti tahlili

Respublikada tadbirkorlik, ayniqsa, xotin - qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan say-harakatlar faqatgina ko‘rsatkichlar bilan cheklanmaydi. Qonuniy asosga ega davlat dasturlari va qabul qilingan me‘yoriy hujjatlar ushbu sohada olib borilayotgan ishlarning asosi hisoblanadi. Bu holat respublika darajasida tadbirkorlikka katta e‘tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.[5]

Avvalo, so‘nggi yillarda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining samaradorligini oshirish va ular uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan turli me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinganini takidlash joiz. Xususan, bu masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi qarorlarini keltirishimiz mumkin:

2024-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122-sonli Qarori, 2024-yil 8-noyabrdagi “Xotin-qizlar tadbirkorligini yanada qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-385-sonli Qarori, 2025-yil 7-martdagi “Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-96-sonli, 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-103-son qarorlarda o‘z aksini topgan bo‘lib, ushbu qarorlarda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini va bandligini oshirish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Alohida takidlash joizki, Prezidentimizning 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-103-son qarori bilan xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning yaxlit tizimi joriy etilmoqda.

Ushbu hujjat bilan 2025-yilda 2 million xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash, 250 ming xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, 250 ming ayollarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish, shuningdek 50 ming ehtiyojmand xotin-qizlarni sanatoriylarda sog‘lomlashtirish va ularda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha motivatsion seminarlar tashkil etishga yo‘naltirilgan asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar belgilandi.

Shuningdek, “Hamroh” tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida:

- ayollarga “yashil loyihalar” va IT sohasidagi loyihalarni amalga oshirishiga, shuningdek kamida 5 nafar ayolning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashgan 1 ming nafar "ustoz" tadbirkorlarga 50 million so‘mgacha grant ajratish tashkil qilish;

ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lgan ayollarga 100 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratish;

- ayol-tadbirkorlar tomonidan kredit hisobidan sotib olinayotgan asbob-uskunalar yetkazib berilgunga qadar "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ kafillik taqdim etish nazarda tutilgan.

Bu kabi qabul qilingan huquqiy hujjatlar mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun keng ko‘lamdagi imtiyozlarni taqdim etadi.

Xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish uchun zamonaviy yechimlar ham joriy etilmoqda. Mikrocreditbank, Xalq banki va Biznesni rivojlantirish banki hamkorligida ishga tushirilgan **loyihalar-fabrikasi.uz** platformasi buning yorqin misolidir. Ushbu platformada hududlarning ixtisoslashuviga mos tavsiyaviy biznes-rejalar, kredit ajratish shartlari va boshqa zarur ma‘lumotlar taqdim etiladi. Platformaning ikkinchi bosqichida ayollar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlarni sotish uchun alohida bo‘lim tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Umuman olganda, kichik biznes, xususan, tadbirkor ayollar uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi. Quvonarlisi, O‘zbekiston moliya tizimi so‘nggi o‘n yillikda sezilarli darajada rivojlanib, bu davrda xususiy sektor tomonidan ajratilgan kreditlarning YAIMga nisbati to‘rt barobarga oshdi (9-rasm). Bu o‘shishning asosiy qismi 2017-yilda bozor va boshqaruv sohasidagi islohotlar joriy etilganidan so‘ng sodir bo‘ldi. 2024-yilda davlat banklari hissasiga O‘zbekiston kredit portfelining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, o‘tgan yili davlat nazorati ostida bo‘lmagan banklar tomonidan kreditlash hajmi 20 foizga oshdi. Markaziy bank ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-2023-yillarda O‘zbekistonda mikromoliya tashkilotlari va lombardlar (*“Lombard” tashkilotlari*) soni mos ravishda 53 va 40 foizga oshgan. Shu vaqt ichida mikromoliya tashkilotlarining aktivlari olti barobar, lombardlar aktivlari esa qariyb uch barobar oshgan.

O‘zbekistondagi aksariyat bank kreditlari hanuz yirik biznesga taqdim etilishi davom etayotgani bois, davlat dasturlari kichik biznes uchun ushbu nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan. 2020-yilda Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 215 mingta loyihaga 6,1 trillion so‘mdan ortiq (*qariyb 607 million AQSH dollari*) imtiyozli kreditlar ajratildi (*har bir loyihaga 2820 AQSH dollariga to‘g‘ri keladi*). COVID-19 pandemiyasidan keyingi tiklanish oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab -quvvatlashning dolzarbligini kamaytirib, ushbu dastur doirasidagi moliyalashtirish 2024-yilda 339 mingta

loyiha uchun 5,7 trillion so‘mga (*taxminan 445 million AQSH dollari*) kamaydi (*har bir loyiha uchun 1316 AQSH dollari*). Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat dasturi doirasida moliyalashtirilgan tadbirkor ayollar loyihalari 2020-2024-yillarda 4615 tadan 188 mingga o‘tib, bu o‘tgan yili ushbu davlat dasturi orqali qo‘llab-quvvatlangan loyihalar umumiy sonining 55 foizini tashkil etdi. Shuningdek, Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat dasturi doirasida ushbu loyihalarga ajratilgan mablag‘lar hajmi shu vaqt ichida 96 milliard so‘mdan (*9,5 million dollar*) 3,1 trillion so‘mga (*243 million dollar*) oshdi. Loyihalarning (49%) va ajratilgan mablag‘larning (50%) eng katta ulushi qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga to‘g‘ri keldi. Ushbu loyihalarning 22 foizi xizmat ko‘rsatish sohasi tadbirkorlari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, undan keyin hunarmandlar (21 foiz) keladi.

2020-yilda tijorat banklari tomonidan ayollarga tegishli kompaniyalarga 4,9 trillion so‘m (*487 million AQSH dollari*) miqdorida kredit ajratilib, 100 mingdan ortiq loyiha moliyalashtirilgan. 2024-yilga kelib, ushbu loyihalar soni 253 mingga, ajratilgan kreditlar miqdori esa 16,8 trillion so‘mga (*1,3 milliard AQSH dollari*) yetgan. Shu tariqa, har bir loyiha uchun o‘rtacha kredit miqdori shu davr ichida 4870 dollardan 5138 dollargacha ortgan. Ushbu ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston moliya tizimining hatto davlat byudjeti ko‘magisiz ham tadbirkor ayollarning kreditlashga loyiq loyihalarini aniqlash va moliyalashtirish imkoniyati kengayib bormoqda.

Samarqand viloyati misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak 2024-yil davomida xotin-qizlar taadbirkorligi uchun viloyat tijorat banklari tomonidan quyidagi dasturlar orqali kreditlar ajratilgan.

Samarqand viloyatida 2024-yilda Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholi va tadbirkorlik subyektlari kreditlash faol amalga oshirilgan bo‘lib, kreditlarning asosiy qismi jismoniy shaxslarga, xususan xotin-qizlarga ajratilgan. Jadvalda xotin-qizlarga ajratilgan kreditlar soni ham ko‘rsatilgan (20 815 ta), bu jami kredit oluvchilarning muhim qismini tashkil etgan.

2024-yil oxirida o‘tkazilgan o‘tkazilgan so‘rovda O‘zbekistondagi 5543 nafar tadbirkor ayol ishtirok etdi. Ular orasidan 4019 ta savolnoma tahlil qilindi. So‘rov O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi va Ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi ko‘magida bo‘lajak respondentlarga tushuntirish ishlari olib borilgandan so‘ng onlayn rejimda (*o‘zbek va rus tillarida*) o‘tkazildi. So‘rov natijalaridan to‘rtta asosiy xulosa chiqarish mumkin.

1-jadval

Samarqand viloyatida Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari Yagona elektron platformasi orqali 2024 yilda aholi va tadbirkorlik subyektlari hamda xotin-qizlar ajratilgan kreditlar (2025-yil 1-yanvar holatiga, mlrd. so‘mda)

T/ r	Banklar nomi	Jami		shundan,						Xotin- qizlarga	
				Jismoniy shaxslarga			yuridik shaxslarga				
		s oni	s um masi	s oni	s um ma si	%	s oni	s um masi	%	s oni	s um masi
A	B	1=2+3		2			3			4	
	JAMI:	3 8 038	6 67,0	3 7 761	6 14, 5	9 2%	2 77	5 2,5	7,9 %	2 0 839	2 96,1
1	Xalq banki	2 7 068	4 46,2	2 7 062	4 43, 6	9 9%	6	2, 6	0,6 %	1 5 017	2 14,4
2	Agrobank	2 69	4 9,8		0 ,0	0 %	2 69	4 9,8	10 0,0%	1 0	2, 1
3	Mikrokre ditbank	1 0 701	1 71,0	1 0 699	1 71, 0	1 00 %	2	0, 1	0,1 %	5 812	7 9,6

Birinchidan, ular moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish endi O‘zbekistondagi tadbirkor ayollar oldida turgan eng katta muammo hisoblanmasligini ko‘rsatadi (10-rasm). Buning o‘rniga, ish va oilaviy vazifalarni birga olib borishdagi qiyinchiliklar respondentlar duch kelayotgan eng muhim to‘siq sifatida ko‘rsatilgan. So‘rovda qatnashganlarning 48 foizi “ish bilan oila o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga doir muammo”ni “katta yoki juda katta muammo” deb qayd etgan; faqat 32% “kichik muammo yoki bunday muammo yo‘q” yoki “dush kelmaganman” variantlarini tanlagan. Aksincha, respondentlarning 41 foizi moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini muammoli, deb hisoblagan bo‘lsa, 10 foizi buni o‘rtacha darajadagi muammo deb va 49 foizi kichik muammo, bunday muammo yo‘q yoki dush kelmaganman deb e’tirof etgan.

Ikkinchidan, (nisbatan yaxshi natijalarni ko‘rsatuvchi) 10 va 11-rasmlardagi yashil chiziqlar ko‘rib chiqilganda, O‘zbekistondagi bozor va boshqaruv sohasidagi islohotlarning

kichik biznes faoliyat yurituvchi tijorat muhitini yaxshilashdagi muvaffaqiyatlarni ko‘rish mumkin. Bu, ayniqsa, so‘rov ishtirokchilarining yarmidan ko‘pi huquqiy va normativ to‘siqlarni o‘z biznesi uchun jiddiy to‘siq, deb hisoblamaganida yaqqol namoyon bo‘ladi.


Uchinchidan, so‘rovda qatnashgan respondentlarning 45 foizi kredit yoki qarz olishdagi muammolarni “qiyin” yoki “juda qiyin” deb ko‘rsatgan bo‘lsa (10-rasm), 62 foizi ayni paytda biznes ehtiyojlari uchun yetarli mablaqqa ega ekanini ta’kidlagan. Ushbu natija kichik biznesni moliyalashtirish ehtiyojlarini qondirish uchun boshqa (*bankdan tashqari*) moliyalashtirish manbalarining (*masalan, taqsimlanmagan foyda, grantlar*) muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u O‘zbekiston banklarining kichik biznesni kreditlashdan manfaatdorligini yanada mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan bozor va boshqaruv sohasidagi islohotlarni amalga oshirishni davom ettirishning afzalliklarini aks ettiradi.

10-rasm — O‘zbekistonda tadbirkor ayollar duch kelayotgan umumiy to‘siqlar (so‘rov ma’lumotlari)



So‘rovda ishtirok etganlar ulushi.
Manba: BMTTD 2024.

11-rasm — O‘zbekistonda tadbirkor ayollar duch kelayotgan tijorat to‘siqlari (so‘rov ma‘lumotlari)



So‘rovda ishtirok etganlar fikri.
Manba: BMTD 2024.

To‘rtinchidan, so‘rov natijalari O‘zbekistonning 14 ta hududi kesimida birmuncha farq qildi. Aksariyat hududlar bo‘yicha natijalar yuqorida tavsiflangan milliy darajadagi ko‘rsatkichlarga umuman olganda mos kelsa-da, Surxondaryo bo‘yicha natijalar keskin farq qiladi — bu viloyatda ishlayotgan respondentlar tadbirkorlik yo‘lidagi barcha to‘siqlarni katta yoki juda katta muammolar, deb ko‘rsatgan. Andijon va Farg‘onada ishlayotgan tadbirkor ayollarning javoblarida ham ushbu hududlardagi (*milliy o‘rtacha ko‘rsatkichlarga nisbatan*) muammolar kattaroqligi ko‘rsatilgan. Aksincha, so‘rov ma‘lumotlari tadbirkor ayollar uchun eng qulay shart-sharoitlar Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida, shuningdek, Toshkent shahrida ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida xotin - qizlar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotganiga qaramay, sohada o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb masalalar ham mavjud. Shu bois, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish va kengaytirish lozim.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, O‘zbekistonda xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini yanada samarali qo‘llab-quvvatlash uchun quyidagi asosiy taklif va tavsiyalar amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- **Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish va soddalashtirish:** Imtiyozli kreditlash dasturlarini ko‘paytirish, garov talablarini yumshatish, mikro-moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va grant dasturlarini joriy etish zarur.

- **Biznesni rivojlantirish bo‘yicha ta‘lim va konsalting xizmatlarini kuchaytirish:** Xotin-qizlar uchun maxsus o‘quv kurslari, seminarlar va mentorlik dasturlarini tashkil etish,

biznes-rejalarni tuzish, marketing, menejment va huquqiy masalalar bo'yicha bepul konsalting xizmatlarini ko'rsatish lozim.

- **Gender stereotiplarini bartaraf etish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish:** Ommaviy axborot vositalari orqali xotin-qizlarning tadbirkorlikdagi muvaffaqiyatli hikoyalarini keng yoritish, jamiyatda tadbirkor ayollarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, shuningdek, bolalar parvarishi va uy xo'jaligi bilan bog'liq yuklamalarni kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish zarur.

- **Mavjud Qonunchilik va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish:** Xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan aniq va samarali qonun hujjatlarini qabul qilish, mavjud qonunchilikdagi gender tengsizligini keltirib chiqaruvchi normalarni bartaraf etish lozim.

- **Davlat organlari va nodavlat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish:** Xotin-qizlarning tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyat yuritayotgan davlat organlari, mahalliy hokimliklar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi koordinatsiyani kuchaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va takroriylikni oldini olish muhim.

Xotin - qizlar tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy o'sish vositasi, balki ijtimoiy o'zgarishlarning katalizatori hisoblanadi. Uning O'zbekistonda rivojlanishi moliyaviy qamrov, ta'lim dasturlari va institutsional muhitni transformatsiya qilishni birlashtirgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikka erishishning muhim omili ekanligi tadqiqot davomida yana bir bor tasdiqlandi. Mavjud muammolarni hal etish va xotin-qizlarning tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun davlat, biznes va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan siyosat va dasturlar, moliyaviy va texnik yordam, biznes-ta'lim va mentorlik dasturlari, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va gender stereotiplariga qarshi kurashish zarur. Ushbu chora-tadbirlar xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, ularning oila va jamiyatdagi rolini oshirish va mamlakatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-122-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi “Xotin-qizlar tadbirkorligini yanada qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-385-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-martdagi “Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-96-sonli Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-103-son Qarori.

5. Ubaydullaeva R. Ayollar tadbirkorligi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

6. Raximova D. O‘zbekistonda gender tengligi va ayollar ishtirokidagi iqtisodiy jarayonlar. Toshkent: Akademnashr, 2021.

7. Sobirova M. Kichik biznes va ayollar tadbirkorligining rivojlanish tendensiyalari. Samarqand: Samarqand nashriyoti, 2022.

8. Qosimova S. Ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish: muammolar va yechimlar. Toshkent: Moliya, 2023.

9. Ismoilova D.K. Ayol tadbirkorlarga moliyaviy xizmatlar: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 2022.

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi va kreditlash ko‘rsatkichlari: 2020-2024 yillar statistikasi. Toshkent, 2024.

11. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Ayollar tadbirkorligining qishloq xo‘jaligidagi o‘rni. Toshkent, 2023.

12. UNDP O‘zbekiston. Gender tengligi va ayollar iqtisodiy huquqlari: 2024-yil hisoboti. Toshkent, 2024.

13. Loyihalar-fabrikasi.uz – Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash platformasi.

14. O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi. Tadbirkor ayollar so‘rovi natijalari, 2024.

15. Jahon banki. Ayollar, biznes va qonun (WBL) indeksi: O‘zbekiston tahlili, 2023.

16. Bourdieu P. The Logic of Practice. Stanford University Press, 1990.

17. Scott W.R. Institutions and Organizations. Sage Publications, 2001.

18. UNDP. Entrepreneurship and Gender Equality: Global Trends, 2024.